



## THE SCIENTIFIC SIGNIFICANCE OF MUHAMMADJON HAKIMOV'S "DICTIONARY OF ORIENTAL ORIGIN"

*Qarshiyeva Feruza Zafar qizi*

*Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat*

*O'zbek tili va adabiyoti universiteti tayanch doktoranti*

*E-mail: [feruzazafarovna756@gmail.com](mailto:feruzazafarovna756@gmail.com)*

*Tel: +998959501217*

*ToshDO'TAU dosenti, filologiya fanlari doktori*

*Q.Pardayev taqrizi asosida*

**Abstract:** The article analyzes Muhammadjon Hakimov's "Dictionary of Oriental Source Studies" and talks about the order of the dictionary's construction, the history of making it into a complete book, various source studies terms and their places of use.

**Key words:** ictionary, lexicography, source, source science, terms

### НАУЧНОЕ ЗНАЧЕНИЕ «СЛОВАРА ВОСТОЧНОГО ПРОИСХОЖДЕНИЯ» МУХАММАДЖОНА ХАКИМОВА

**Аннотация:** В статье анализируется «Словарь восточного источниковедения» Мухаммаджона Хакимова, рассказывается о порядке построения словаря, истории формирования его полноценной книги, различных источниковедческих терминах и местах их употребления.

**Ключевые слова:** словарь, лексикография, источник, источниковедение, термины,

### MUHAMMADJON HAKIMOVNING "SHARQ MANBASHUNOSLIGI LUG'AT" INING ILMIY AHAMIYATI

**Annotatsiya:** Maqolada Muhammadjon Hakimovning "Sharq manbashunosligi lug'ati" tahlil qilinib, lug'atning tuzulish tartibi, yaxlit kitob holatiga keltirilish tarixi, unda keltirilgan turli manbashunoslik atamalar va ularning qo'llanilish o'rinlari haqida so'z yuritiladi.

**Kalit so'zlar:** lug'at, lug'atchilik, manba, manbashunoslik, atamalar.



**Kirish.** O‘zbek manbashunosligi va matnshunosligining zahmatkash olimlaridan biri Muhammadjon Hakimov Navoiy asarlari manbalari, xattotlik san’ati, kotiblar, qo‘lyozma va toshbosma manbalar bo‘yicha qator maqola va monografiyalar muallifidir. Ustoz ilmiy faoliyatining katta qismini qo‘lyozmalarni to‘plash va ularni ilmiy istifodaga kiritish ishlariga bag‘ishlagan edi.

Muhammadjon Hakimov 1935-yil 5-noyabrda Toshkent shahrida ishchi tunukasoz oilasida dunyoga kelgan. O‘rta maktabni tugatganidan so‘ng 1956-yildan Toshkent Davlat kechki pedagogika institutining tarix-filologiya fakultetining o‘zbek tili va adabiyoti bo‘limida bilim oladi. 1961-yildan boshlab O‘zbekiston fanlar akademiyasi Til va adabiyot instituti Manbashunoslik bo‘limida o‘z xizmat faoliyatini olib bordi. Olim 1965-yilda o‘zining “O‘zbek sovet yozuvchilarining asarlarida maqol, matal va hikmatli so‘zlar” deya nomlangan nomzodlik dissertatsiyasini himoya qiladi. Muhammadjon Hakimov 1967-1978-yillar mobaynida Alisher Navoiy nomidagi Adabiyot muzeyida katta ilmoy xodim vazifasida xizmat qildi. Shu vaqt oralig‘ida Adabiyot muzeyining Alisher Navoiy davri hayoti, ijodi va zamondoshlariga bag‘ishlangan ekspozitsiyani yaratishda rassomlar, tarixchilar bilan hamkorlikda ish yuritdi. 1989-yilda Muhammadjon Hakimovning navbatdagi ilmiy ishi - “Alisher Navoiy ijodida folklor an‘analari” mavzusidagi doktorlik dissertatsiyasi muvofaqiyatli yoqlandi. 1998-yildan boshlab Muhammadjon Hakimov o‘zining ilmiy faoliyatini O‘zbekiston Fanlar akademiyasining Sharqshunoslik institutida davom ettirdi va hayotining so‘nggiga qadar shu yerda faoliyat yuritdi. Og‘ir hastalik ustozni 2001-yilning 21-noyabirida hayotdan olib ketdi.

Olimning Alisher Navoiy asarlari qo‘lyozmalari ustida olib borilgan uzoq yillik kuzatishlari va ilmiy tadqiqotlari samarasi o‘laroq “Navoiy asarlari qo‘lyozmalarining tavsifi”, “Alisher Navoiy “Xamsa”sining qo‘lyozmalari tavsifi”, “Alisher Navoiy asarlarini ko‘chirgan xattotlar” nomli kitoblari yuzaga keldi. Ustoz olim Yozma meros na‘munalarini o‘rganish jarayonida kitobat ishiga oid atamalarning qisqacha izohli lug‘atini ham tuzishni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘yadi va tez orada ishga kirishib, qisqa vaqt ichida anchagina materiallar tayyorlaydi. O‘rta Osiyoda lug‘at tuzish ananasi juda qadimdan boshlangan. X asrda faroblik Abu Nosir Javhariy arab tilining “Toj ul-lug‘at va sahhoh ul-arabiya” deb nomlanga izohli lug‘atini tuzgani ma‘lum. XI asrda Mahmud Qoshg‘ariy o‘zining “Devou lug‘otit-turk” kitobini yozdi. XII asrda Mahmud Zamaxshariy lug‘at ilmiga buyuk hissa qo‘shdi. U arab tilining izohli lug‘ati “Asos ul-balog‘a”ni yaratdi. Shu zayilda



lug‘atchilik ananalari shakllana borgan. Keyinchalik Alisher Navoiy asarlariga jahon miqyosida qiziqish ortib uning asarlariga ko‘plab lug‘atlar tuzilgani tarixdan ma‘lum.

Muhammadjon Hakimov uzoq yillar mobaynida manbashunoslik va matnshunoslik bilan shug‘ullanar ekan, ayni shu sohalarga aloqador atamalarni ham to‘plab kelgan edi. Shu atamalarni saralab ularga qisqacha maqolalarni yozib boradi. Ushbu maqolalarni o‘zi faoliyat olib borayotgan Qo‘lyozmalar instituti nashri bo‘lgan “Adabiy meros” to‘plaminingning 1982-1984-yillar oralig‘ida 23-30-sonlarida muntazam nashr ettirib borgan. Keyinchalik ustozda ushbu ish ko‘lamini kengaytirish ya‘ni faqat sharq qo‘lyozmalarining emas balki umuman sharq manbashunoslik lug‘atini tuzish fikri tug‘iladi. Ustozning zahmatkashligi va tinimsiz mehnati tufayli ko‘plab maqolalar yoziladi. Ammo ustoz vafoti sabab e‘tiborga molik lug‘at maqolalari yaxlit bir kitob holiga keltirilmasdan qoladi. Ustoz vafotidan so‘ng ushbu savobli ish ustozning yaqinlari va shogirdlari yordami bilan o‘z nihoyasiga yetkazildi. Bugungi kun manbashunosligining katta yutuqlaridan biri bo‘lgan “Sharq manbashunosligi lug‘ati” kitobi 2135 ta maqoladan iborat va 21,7 bosma taboq hajmida nashr ettirildi. “Lug‘atni nashrga tayyorlash davomida imkon bo‘lgan hollarda ochiq qolgan atamalarning ba‘zilariga maqolalar yozishga harakat qilindi, ayrim sahofalardagi sana va misollar uchun qoldirilgan bo‘sh joylarga tegishli sanalar aniqlanib, kerakli misollar topib yozib qo‘yildi.”<sup>1</sup> - deya takidlab o‘tadi mazkur lug‘atni tayyorlashda katta hissa qo‘shgan, olimning shogirdlaridan Alisher Navoiy nomidagi Davlat adabiyot muzeyi katta ilmiy xodimi Yusuf Tursunov “Manbashunoslik fani fidoiysi” sarlavhali lug‘atning so‘zboshisida.

“Sharq manbashunosligi lug‘ati” kitobi krill alifbosida ketma-ketlik tartibida tuzilgan bo‘lib, kitobda barcha harflarga oid so‘zlar keltirilgan. Xususan, “A” harfi bilan boshlanuvchi 225 ta so‘zga izoh berib o‘tiladi. Jumlar o‘quvchiga tushunarli soda va qisqa shaklda tuzilgan. Har bir so‘zga atroflicha to‘xtalib, diniy, dunyoviy ilmlar asosida izoh keltirilgan. So‘zlarning izohi misollar bilan muxtasar shaklda tushuntirib o‘tiladi. Masalan:

*Anbarafshon* – anbar taratuvchi kitob saxifalari.<sup>2</sup>

*Anbarbez* – anbar sochilgan, xushbo‘y.<sup>3</sup>

<sup>1</sup> M.Hakimov “Sharq manbashunosligi lug‘ati”- Toshkent. “Davypress NMU”, 2013-y. 5-b.

<sup>2</sup> M.Hakimov “Sharq manbashunosligi lug‘ati”- Toshkent. “Davypress NMU”, 2013-y.15-b.

<sup>3</sup> M.Hakimov “Sharq manbashunosligi lug‘ati”- Toshkent. “Davypress NMU”, 2013-y.15-b.



Bu kabi misollarni juda ko‘plab keltirish mumkin. Lug‘atda keltirilgan atamalarni quidagicha guruhlash mumkin:

1. Adabiyotshunoslik va matnshunoslikka oid atamalar;
2. diniy – tasavvufiy istilohlar;
3. ijtimoiy-siyosiy ahamiyatga ega bo‘lgan atamalar;
4. ilmiy atamalar.

Matniy o‘lcham, matniy tahlil, saj’, fihrist, mag‘ziy kabi so‘zlar adabiyotshunoslik va matnshunoslikka oid atamatlar hisoblanib, bunday so‘zlar lug‘atning asosiy hajmini egallaydi.

Sharq mumtoz adabiyotini o‘rganar ekanmiz uning har taraflama diniy – tasavvufiy mazmun-mohiyatga yo‘g‘rilganligi barchamizga ma‘lumdir. Shuning uchun “Sharq manbashunosligi lug‘ati”da ham bunday mazmunni ifodalovchi so‘zlar anchagina ekanini kuzatishimiz mumkin. *Siddiq, mushaf, mutasavvif, tafosir* kabi ushbu qatlamga kiruvchi so‘zlarni keng davom ettirish mumkin.

Ijtimoiy-siyosiy qatlamga oid so‘zlar: *dor ul-qazzo, voliy, arkoni harb, fatvo;*

Mazkur lug‘atda ilm-fan tarmog‘iga oid atamalar ham anchagina. Ular xattotlik, ilmi aruz, fiqh ilmi va bir qancha kasb – hunar ilmlariga oid atamalar qatlamiga kiradi. Ilmiy atamalarga quyidagilarni misol qilib keltirish mumkin: *naqqosh, urjuza, usto, tazhib.*

O‘ziga qadar yaratilgan lug‘atlar va ularning yaratilish qoidalariga to‘la amal qilgan holda tayyorlangan Muhammadjon Hakimovning “Sharq manbashunosligi lug‘ati” ayni shu ilm sohasidagi juda katta yangilik va katta ilmiy boylik bo‘lib qoldi. Lug‘at manbashunoslikdek keng ilmiy sohani butunlay qamrab ololmagan bo‘lsada juda keng ilmi o‘zida jamlaydi. Manbashunoslik sohasiga yangi kirib kelganlar uchun ham, ko‘p yillik tajribaga ega ustoz olimlar uchun ham birday sevimli qo‘llanma sifatida xizmat qilmoqda. Ushbu sohaga qiziqish bildirgan har bir izlanuvchiga lug‘at bilan tanishib chiqishni maslaxat bergan bo‘lar edik. Chunki mazkur lug‘atda sohaning so‘z qatlami keng qamrovda olingan bo‘lib, har bir morfemaga mukammal tarzda izoh berilgan. Biz ushbu lug‘at tadqiq etish jarayonida shu kunga qadar yaratilgan bir qancha lug‘atlar bilan birgalikda o‘rganib chiqishga harakat qildik. O‘zbekiston Fanlar akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik institutining tarixiy leksikologiya va leksikografiya bo‘limida atoqli olim E.Fozilov va boshqa sharq tillari bilimdonlari ishtirokida tuzilganva 1983-1989-yillarda “Fan” nashriyotida nashrdan chiqarilgan 4 jildli “Alisher Navoi asarlari tilining izohli



lug‘ati”ga kiritilgan ayrim so‘zlarni “Sharq manbashunosligi lug‘ati”da keltirilishi bilan qiyoslab ko‘rdik. Ustoz olim “Sharq manbashunosligi lug‘ati”da har bir so‘zga mufassal izoh berib o‘tishga harakat qilganlar. Misol tariqasida birgina *silsilar* so‘zini olamiz.

*SILSILA* – [ko‘pl. salosil] 1. Zanjir; tizim; tartib. 2. Tariqat shayxlarining ketma-ket keltirilgan nomlari.<sup>4</sup>

*SILSILA* – tasavvufda har bir tariqat mashoyixlarining ikki xil nisbiy bog‘lanishi. Birinchi, har bir shayx o‘z piru-ustozini, ustozining ustozini, ... nomlarini shu tartibda to Muhammad alayhsalomga qadar nomma-nom bayon qilish. Chunonchi, Bahouddin Naqshbandning piri Sayyid Amir Kulol, uning piri Muhammad Samosiy, uning piri Mahmud Anjirfag‘naviy va hakazo. Bahouddin Naqshbandiyini o‘ziga piru-ustoz qilib olib, uning tariqatini davom ettirgan mashoyixlar ham Naqshbandiya silsilasiga kiradilar. Ikkinchi, har bir shayx o‘zining ota-bobosi, ya’ni nasl-nasabi kimlar bo‘lgani va qaysi mashhur zotga borib taqalishini isbotlab beruvchi yozma shajara (nasabnoma). Chunonchi, Bahouddin Naqshband ibn Jaloliddin ibn Burhoniddin ibn Abdulloh, to Ali ibn Abu Tolibga borib taqaladi. Silsila so‘zining yuqorida aytilgan birinchi ma’nosi tasavvufda tariqat pir-ustozlarining tizmasini anglatib kelsada, bu o‘rinda ko‘proq shajara nasab (nasabnoma) so‘zlari muvofiq tushadi.<sup>5</sup>

Ushbu birgina so‘zning ikkala manbadagi izohining o‘zi ham “Sharq manbashunosligi lug‘ati”ning har bir so‘zga mufassalroq to‘xtalib o‘tilganligini ko‘rsatadi.

**Xulosa va takliflar:** Bundan tashqari lug‘atda matn va manbashunoslik, xattotlik, xattot va kotiblar nomlari, kitobat san’atiga aloqador ilmlarga oid juda ko‘plab ma’lumotlar keltiriladi. Ayrim xat turlari va xattotlar haqidagi ma’lumotlar ham diqqatga sazovordir. Masalan: *Riqo, xatti riqo, nastaliq, kufiy, rayhoniyy; Mir Ali Tabriziy, Sultonali Mashhadiy...* bunday so‘zlar qatorini ko‘plab keltirish mumkin.

Lug‘at bugungi kunda manbashunoslik fanida keng foydalanilayotgan qo‘llanmalardan biri. Shu bilan bir qatorda sohadagi katta yutuqlardan biridir. Yuqoridagi ma’lumotlardan ko‘rinib turibdiki, ushbu lug‘at lug‘atchiligimizda va manbashunoslik ilmida salmoqli o‘ringa ega salmoqli asardir.

<sup>4</sup> “Alisher Navoi asarlari tilining izohli lug‘ati”. 4 jildli. “Fan”1983-1989-y. 250-b.

<sup>5</sup> M.Hakimov “Sharq manbashunosligi lug‘ati”- Toshkent. “Davrpess NMU”, 2013-y.272-b.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. M.Hakimov “Sharq manbashunosligi lug‘ati”- Toshkent. “Davypress NMU”, 2013-y
2. M.Hakimov “Alisher Navoiy asrlarini ko‘chirgan xattotlar” – Toshkent. “Fan”, 1991-y.
3. M.Hakimov “Navoiy asarlari qo‘lyozmalarining tavsifi” – Toshkent. “Fan”, 1983-y.
4. D.Yusupova “O‘zbek mumtoz va milliy uyg‘onish adabiyoti (Alisher Navoiy davri)” – Toshkent. Tamaddun-2016
5. M.Hakimov “Navoiy “Xamsa”si qo‘lyozmalarining tavsifi” – Toshkent. “Fan”, 1976-y. (Q.Munirov bilan hamkorlikda)
6. M.Hakimov “Alisher Navoiy asarlarini ko‘chirgan xattotlar” – Toshkent. “Fan”, 1991-y.
7. M.Hakimov “Sharq manbashunosligi lug‘ati”- Toshkent. “Davypress NMU”, 2013-y.
8. “Alisher Navoi asarlari tilining izohli lug‘ati”. 4 jildli. “Fan”1983-1989-y.
9. P.Shamsiyev “O‘zbek matnshunosligiga oid tadqiqotlar” – Toshkent. “Fan”, 1986-y.
10. A.Habibullayev “Adabiy manbashunoslik va matnshunoslik” – Toshkent. Toshkent Davlat Sharqshunoslik instituti, 2000-y.
11. Sh.Sirojiddinov, S.Umarova “O‘zbek matnshunosligi qirralari” – Toshkent Akademnashr, 2015-y.
12. Sh.Sirojiddinov “Alisher Navoiy manbalarining qiyosiy-tipologik, tekstologik tahlili” – Toshkent Akademnashr, 2011-y.
13. M.Xasaniy, A.Habibullayev “Adabiy manbashunoslik va matnshunoslikning nazariy masalalari” – Toshkent. Toshkent Davlat Sharqshunoslik instituti, 2012-y.
14. T.Zufarov “Xat ta’limi” – Toshkent. “MERIYUS”, 2010-y. 280 b.
15. A.Murodov “O‘rta Osiyo xattotlik san’ati tarixidan” – Toshkent. . “Fan”, 1971-y. 220 b.